

Tarozining hikoyasi



15:00 / 09.05.2025 2037

Avvalo o'zimni tanishtirсам. Kamina doim xizmatingizga shay tarozi bo'laman. Biz tarozilar Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Islomni olib kelgunlaricha ham odamzod boshiga tushgan ko'pgina voqealarga guvoh bo'lganmiz. Halokatli bu hodisalarning sababini ham ozmi-ko'pmi bilamiz. Qaysiki yurtda ikki narsa – tarozi va o'lchovga xiyonat qilish ko'paysa, shu yurtning boshiga balo-yu qazo yog'ilgan. Hatto ba'zi qavmlar yer yuzidan tamoman yo'q bo'lib ketgan. Hammasi odamlar bir-birini aldab, ulug' hakam – Alloh ko'rib turishini unutib qo'yishining orqasidan bo'ladi. Shuning uchun ham Nabiy sollallohu alayhi vasallam o'lchov va tarozi egalariga: «Zimmangizga o'zingizdan oldin o'tgan ummatlarning halokatiga sabab bo'lgan ikki narsa yuklatildi», deganlar. Ikki narsaning biri kamina – tarozi, ikkinchisi o'lchov narsasidir.

Bir kuni bunday bo'ldi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Makkaning bozoridan o'zlariga kiyim sotib oldilar. Shundoqqina ro'paralarida kamina turgan edim. Mening egam tarozibonlik qilar, shu bilan yuk egalaridan haq olib kun kechirardi. Hazrati Payg'ambarimiz uning oldiga keldilar-da: «Tort va og'irroq qil», dedilar.

Men bu barokatli, muborak so'zlarni eshitib, yayrab ketdim. Qaniydi shunday bo'lsa? Kamina hamisha xaridorlarning yuz-ko'zlaridan sotib olayotgan narsasi bir chimdim bo'lsa ham ko'proq tortilishini istayotganini ko'rib turardim. Ayni paytda mol egasining bir chimdim bo'lsa ham kamroq tortilishini, tarozi o'zining foydasiga ishlashini xohlayotganini ham payqardim. Mol egasining bunaqa qurumsog'ligi menga yoqmas edi. Mana endi Payg'ambarimiz: «Tort va og'irroq qil», dedilarmi, u zotning aytganlarini qilish kerak. Qani, mening sohibim nima qilar ekan deb qarab turibman. U yuk egasidan:

- Og'irroq qilib tortib bersam maylimi, - deb so'radi.

- Yo'q, - dedi u.

- Unda men yukingni tortib bermayman, boshqa tarozibonga olib bor, - dedi mening egam.

Sohibimning harakatidan boshim osmonga yetdi. U ishsiz qolmadi. Boshqa bir yuk egasi og'irroq tortib sotishga rozi bo'ldi. Bu gap darrovda bozorga tarqadi. Xaridorlar yonimda to'planib qolishdi. Sohibimning qo'li-qo'luga tegmaydi, deng. Men barokatli taroziga aylanib qoldim.

Asta-sekin boshqa tarozibonlar ham mol egalari bilan kelishuvni yo'q qilib, sohibimning yo'lini tutishdi, Payg'ambarimiz hadislariga amal qilishdi. Bozorlarimizga nur va baraka to'lib ketdi.

Aytmoqchimanki, aziz bolajonlar, siz ham ulg'ayasiz, bozorlarga meva-cheva, Alloh bergan rizqlar, don-dunlar olib kelasiz. O'lchab sotiladigan matolar va boshqa narsalar bilan mashg'ul bo'lasiz. Ziqna bo'lmang, saxiy, qo'lingiz ochiq bo'lsin. Topgan-tutganingizga baraka yog'ilishini o'shanda ko'rasiz.

Erkin bobo

«Hilol» jurnali 6(63)-son